

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX VA MADANIY MEROS FAKULTETI
“Buxoro tarixi” kafedrası**

B.B. Boltayev

***5120300 - (60220300) Tarix (mamlakatlar va
mintaqalar bo‘yicha) ta‘limi yo‘nalishi talabalari
uchun mutaxassislik fanlardan
Mustaqil ishni tashkil qilish bo‘yicha
USLUBIY KO‘RSATMA***

**“Durdona” nashriyoti
Buxoro – 2022**

Tuzuvchi : Bobir Boltayev

Taqrizchilar:

K.J. Rahmonov, Jahon tarixi kafedrası dosenti tarix fanlari nomzodi

Yu.A. Shukrullayev, Buxoro muhandislik - texnologiya instituti
dosenti, tarix fanlari nomzodi

Mazkur uslubiy ko'rsatma BuxDU o'quv-metodik kengashining
2022-yil 27-maydagi 10-sonli yig'ilish qarori bilannashr qilish uchun
tavsiya etilgan.

Fan/modul kodi : TRUB 205	O‘quv yili 2021-2022	Semestr 2	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (60 soat)	Mustaqil ta’lim (90 soat)	Jami yuklama (150 soat)
	Tarixiy o‘lkashunoslik	60	90	150

5120300-(60220300) Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta’limi yo‘nalishi talabalari mustaqil ishini tashkil etish yo‘llari bayon etilgan ushbu uslubiy ko‘rsatma ijtimoiy fan talabalari va o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi № 286 buyrug‘i bilan tasdiqlangan **“Talaba mustaqil ishini tashkil etish, nazorat qilish va baholash tartibi to‘g‘risidagi namunaviy Nizom”** asosida ishlab chiqildi. Shuningdek, mazkur uslubiy ko‘rsatma o‘quv - uslubiy adabiyotlarga tayangan holda tuzilganligi va me‘yoriy hujjatlar talablariga javob berishi inobatga olinib, Tarix va madaniy meros fakulteti ilmiy kengashlari tomonidan tasdiqlandi va nashr etishga tavsiya qilindi.

TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH

Mutaxassislik fanlaridan mustaqil ishlarni tashkil qilish, bilimlar bilan bir qatorda tanlagan sohasi bo‘yicha mustaqil faoliyat ko‘rsata oladigan, o‘z bilimi va malakasini **mustaqil ravishda** oshirib boradigan, masalaga ijodiy yondashgan holda muammoli vaziyatlarni to‘g‘ri aniqlab, tahlil qilib, sharoitga tez moslasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifalardan biri sifatida ekanligi 2020 23 sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risidagi” 637- sonli O‘RQ qabul qilingan qonun moddalaraida o‘z aksini topgan.

Ma'lumki, axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida talabalarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, talaba **mustaqil ravishda shug'ullansa**, va o'z ustida tinimsiz ishlasagina, bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin. Shuning uchun talabalarning mustaqil ta'lim olishlarini rejalashtirish, tashkil qilish va buning uchun barcha zaruriy shart – sharoitlarni yaratish, dars mashg'ulotlarida talabalarni o'qitish bilan bir qatorda ularni ko'proq o'qishga o'rgatish, bilim olish yo'llarini ko'rsatish, mustaqil ta'lim olish uchun yo'llanma berish oliy ta'lim muassasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Xo'sh, **mustaqil ish** nima o'zi? Buni aniqlash uchun o'zbek tilining izohli lug'atiga murojaat qilamiz. Izohli lug'atda "mustaqil" so'zining arab tilidan olinganligi, "*erkin, ozod, tobe bo'lmagan, alohida*" kabi ma'nolarni anglatishi uqtirilgan. **Mustaqil ish** iborasi esa - "faqat o'ziga taalluqli, o'zgalar ishtirokisiz, ta'sirisiz bo'ladigan" ma'nosida qo'llanilishi quyidagi misol bilan tushuntirilgan: "Me'mor uchala shogirdidan ham mingdan – ming rozi ekanligini aytdi, endi **mustaqil ish** qilaverishlaringiz mumkin, deb fotiha berdi" (Mirmuhsin, "Me'mor" romani). Demak, mustaqil ish - ustozning bevosita rahbarligisiz, ko'magisiz biror - bir ishni amalga oshirish demakdir.

5120300 - (60220300) Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalari mustaqil ishi (TMI) dan ko'zlangan maqsad – talabalarning mazkur fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, ko'nikma va malakaning ma'lum bir qismini fan o'qituvchining maslahat va tavsiyalar asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o'zlashtirishiga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ish - talabalarning davlat ta'lim standartlarida belgilangan hajmdagi bilimni egallashlari uchun auditoriyada olayotgan ilmlari bilan cheklanib qolmasdan, o'z ustlarida ishlab, fanni o'z qobiliyatlari doirasida o'zlashtirishlariga, savol va topshiriqlarga mustaqil ravishda javob topish ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga imkon beradigan ta'lim turi bo'lib hisoblanadi. Mutaxassislik fanlaridan mustaqil ishlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsad – talabalarning mazkur fanlarning asosiy tushuncha va tamoyillarini yanada chuqurroq o'zlashtirishga, mafkuraviy jihatdan yana ham bilimlir bo'lishlariga qaratilgandir.

Talabalarning mustaqil ishlash ko'nikmalarini keng rivojlantirish, uni samarali tashkil etish har bir fan o'qituvchisidan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishni, talabalarning mustaqil

ishni bajarishga ketgan mehnat va vaqtlarini inobatga olib, adolatli baholashni talab etadi. **TMI** ni tashkil etishda professor - o'qituvchilar har bir talabaning o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatiga ishonch uyg'otishi, ularni sabr - toqat bilan, bosqichma - bosqich mustaqil bilim olishga o'rgatib borishi lozim bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan - kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta'lim olishga ko'nika boshlagan talaba o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi zarur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Namunaviy va ishchi dasturlar asosida **TMI** ning shakli, mazmuni, hajmi aniqlanadi. Topshiriqlar va baholash mezonlari, uslubiy ko'rsatmalar ishlab chiqiladi va maslahatlar jadvali tuziladi. Mustaqil ishni tashkil etish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim Vazirligining 2009 yil 14 avgustdagi **“Talabalarning mustaqil ishni tashkil etish to'g'risidagi Nizom”** asos bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari 2020 23 sentyabrdagi qabul qilingan “Ta'lim to'g'risidagi” 637-sonli O'RQ qonunning 18- moddasida “Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi”,- deb yozib qo'yilgan.

5120300 - (60220300) Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabalarining TMI ning shakli va hajmini belgilashda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan jihatlar:

1) Tarix yani mutaxassislik fanining uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari (maktab, kollej va akademik liseylar) da o'qitilishini hisobga olgan holda, talabalarining oliy ta'lim dargohiga o'qishga kirgunlariga qadar olgan bilim, ko'nikma va malakalari inobatga olinishi va mustaqil ishlar shunga muvofiq tarzda tashkil etilishi lozim;

2) Talabalar **5120300-(60220300) Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'limi yo'nalishi** o'ziga xos xususiyatlari va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarni bajarishga yo'naltirilishi kerak;

3) Talabalarining tayanch bilimi (poydevori) ning mustahkam yoki mustahkam emasligi, ularning aqliy qobiliyatlari hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajalari e'tibordan soqit qilinmasligi darkor;

4) Talabalarning mazkur fanning alohida bo‘limlari mavzularini oson o‘zlashtirishlariga yordam beradigan axborot manbalari bilan ta‘minlanganlik darajasiga e‘tibor qaratish lozim bo‘ladi;

5) Talabalarning ushbu **axborot manbalari** bilan ishlay olish darajasi ham inobatga olinishi kerak. Mustaqil ishni bajarish uchun talabaga axborot manbasi sifatida qo‘shimcha adabiyotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, uslubiy ko‘rsatmalar, ilmiy va ommaviy nashrlar, internet manzillari, davriy matbuot (respublika, viloyat, tuman miqyosidagi gazeta va jurnallar) ro‘yxati, teledasturlar va radioeshittirishlar, berilgan mavzu bo‘yicha avvalroq bajarilgan ishlar banki, ma‘lumotlar to‘plami va boshqalar xizmat qiladi.

Mustaqil ish uchun beriladigan topshiriqlarning shakli va hajmi, qiyinchilik darajasi semestrda - semestrga ko‘nikmalar hosil bo‘lishiga muvofiq ravishda o‘zgarib, oshib borishi lozim. Ya‘ni talabalarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta - sekin oshirib, ularni topshiriqlarni tizimli bajarish va ijodiy yondashishga o‘rgatib borish kerak bo‘ladi. Eng asosiysi, ularni mustaqil ta‘limga ruhan tayyorlash bo‘lib, bu ularning mustaqil hayotga ilk qadamlari ekanligini professor – o‘qituvchilar to‘g‘ri yetkazishlari va ularga imkon qadar yordam berishlari kerak. Ma‘lumotlarni qaysi manbadan, qanday qilib topish, ularni tahlil qilish va zarurlarini ajratib olib tartibga solish, konspektlashtirish, o‘z fikrini aniq va yorqin ifodalash, o‘z vaqtlarini to‘g‘ri taqsimlash, shuningdek, aqliy va jismoniy imkoniyatlarini to‘g‘ri baholash borasida fan o‘qituvchilari talabalardan o‘z maslahatlarini ayamaskliklari darkor.

TMI ni tashkil etishda talabaning akademik o‘zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi **shakllardan** foydalanish mumkin:

- **5120300 -(60220300) Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo‘yicha) ta‘limi yo‘nalishi mutaxassislik fanlarining ayrim mavzularini o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish, o‘quv manbalari bilan ishlash.** Mutaxassislik fanlaridan xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o‘quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o‘zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch iboralarga, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan savollarga e‘tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axborot manbalarini ko‘rsatish lozim bo‘ladi.

- Topshiriqni bajarish jarayonida talabalar mustaqil ravishda o‘quv adabiyotlaridan foydalanib mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch iboralarning mohiyatini anglagan holda mavzuga taalluqli savollarga javob tayyorlaydilar. Zarur hollarda (o‘zlashtirish qiyin bo‘lsa, savollar paydo bo‘lsa, adabiyotlar yetishmasa, mavzuni tizimli bayon eta olmasalar va h.k.) o‘qituvchidan maslahat oladilar. Mustaqil o‘zlashtirilgan mavzu bo‘yicha tayyorlangan matn kafedrada himoya qilinadi.

Mavzuni mustaqil o‘zlashtirishda professor – o‘qituvchi tomonidan talabalarga elektron kutubxonadan, ensiklopediyalar, lug‘atlar va boshqa adabiyotlardan foydalanish yo‘llari ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqdir;

- Mazkur fandan **amaliy (seminar) mashg‘ulotlarga tayyorgarlik** ko‘rib kelish – mustaqil ta‘limning eng primitiv shakllaridan biri bo‘lib, bunda talabaning o‘z ustida ishlashi, ijodkorligidan ko‘ra, tartib – intizomga rioya qilish xususiyati ko‘proq ko‘zga tashlanadi. Seminarga tayyorgarlik ko‘rish – bu faqat muayyan mavzuni kitobdan ko‘chirib kelib, uni o‘qib berishni emas, balki, kitobda berilgan fikrlarga nisbatan o‘z shaxsiy fikrini bildirish, tahlil qila olish, o‘qituvchi va kursdoshlari tomonidan berilgan qo‘shimcha savollarga imkon qadar to‘liq javob berishni ham o‘z ichiga oladi. Mustaqil ishning bu turini baholashda talabaning faollik darajasi, uning ixtiyoriy ravishda qatnashayotganligi yoki majburan jalb qilinayotganligi, savol – javoblarda ishtirok etayotganligi va amaliy mashg‘ulotni yozib kelgan – kelmaganligi inobatga olinadi;

- O‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan yoki talaba tomonidan ixtiyoriy ravishda tanlangan mavzu yuzasidan **referat tayyorlash**. Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘shimcha adabiyotlardan (monografiyalar, ilmiy, uslubiy maqollar, Internetdan olingan ma‘lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig‘adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo‘yicha imkon darajasida to‘liq, keng ma‘lumot berishga harakat qiladi. Zarur hollarda o‘qituvchidan maslahat va ko‘rsatmalar oladi. Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Referat shaklidagi mustaqil ishni bajarishni rejalashtirayotgan talabaga o‘qituvchi quyidagilarga maslahatlarni berishi shart:

- 1) Mavzuga oid manba va adabiyotlar batafsil o‘rganib chiqilishi kerak.
- 2) Ularning muhim qismlari konspektlashtirilishi shart.
- 3) Manbaning asosiy g‘oyalari asosida reja tuzish lozim.
- 4) Tuzilgan reja asosida referat tayyorlash kerak.
- 5) Referatni tayyorlash paytida rejada ko‘rsatilgan masalalarni batafsil bayon etish, mantiqiy bog‘lanishga e‘tibor berish shart.
- 6) Referatni albatta xulosalanishi, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va boshqa manbalar ko‘rsatilishi kerak.
- 7) Referatni g‘aliz tilda emas, balki ravon tarzda yozilishi kerak.
- 8) Referat bayonida talaba erkin, mustaqil fikrlashi kerak.
- 9) Referatning hajmi 20 qo‘lyozma betdan iborat bo‘lishi (kompyuterda terilgan bo‘lsa, 10 betdan kam bo‘lmasligi) kerak.
- 10) Referat umumiy qoidalar asosida rasmiylashtirilishi kerak.

Har bir professor – o‘qituvchi talabalarga mustaqil ish uchun qayerdan va qanday qilib material to‘plashi mumkinligi, qaysi manbalarga murojaat qilsa maqsadga muvofiq bo‘lishini tushuntirishi, qolaversa, foydalanish mumkin bo‘lgan adabiyotlar ro‘yxatini ham tavsiya qilishi kerak.

Xullas, talaba o‘zining mustaqil ishini alohida daftar yoki “fayl papka” da tayyorlab keladi. Referatlar kafedrada belgilangan muddatda, muayyan rejim asosida qabul qilinadi va baholanadi. Mustaqil ish himoya qilinishidan bir necha kun oldin kafedraga topshirilishi, belgilangan tartibda o‘rganib chiqilishi, o‘qituvchi tomonidan unga qo‘yilgan talablar hisobga olinib, o‘rganib chiqilishi shart. Talabaning referatiga qo‘yilgan ball (baho) o‘qituvchi tomonidan kafedrada tashkil etilgan maxsus jurnalga qayd etiladi. Referatni himoya qilish paytida talaba o‘zi yozgan ishning mazmun - mohiyatini qisqacha izohlab berishi, o‘qituvchi tomonidan berilgan qo‘shimcha savollarga imkon doirasida javob berishi talab etiladi. Agar talaba mustaqil ishni yozma ravishda tayyorlab kelgan bo‘lsa - yu, uni himoya qila olmasa, unga 59 % dan ortiq ball (baho) qo‘yilmaydi. Referatni yozishga qo‘yilgan barcha talablar to‘liq bajarilib, talaba uni himoya qila olganda o‘qituvchi unga maksimal ball (baho) qo‘yishi mumkin. Ba’zida kafedraning qarori bilan talaba mustaqil ishni bajarish usulini o‘zgartirishi mumkin. Mustaqil ishni tayyorlash, baholash, rasmiylashtirish jarayonida talaba o‘z zimmasidagi mas’uliyatni to‘la anglashi, o‘qituvchi esa nizom qoidalariga amal qilishi lozim;

- **Ko‘rgazmali vositalar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o‘zlashtirish uchun yordam

beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, xaritalar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar, kichik badiiy asar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l - yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani mavzularni taqsimlab, talabalarning har biriga alohida, individual topshiriq sifatida ham; yoki ayni topshiriqlarni bir mavzu bo'yicha bir necha talabaga ham topshirish mumkin. Talaba ko'rgazmali materiallardan foydalanish bo'yicha yozma ravishda tavsiyalar tayyorlaydi va kafedrada himoya qiladi. Mustaqil ta'limning ushbu turi barcha yo'nalishdagi talabalarga **ixtiyoriy** ravishda; axborot texnologiyalari (MIIT) yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalardan esa (o'z mutaxassisliklari bilan bog'liq bo'lganligi uchun) **qat'iy** talab qilinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi;

- **Fanlar mavzulari bo'yicha testlar va krossvordlar tuzish, munozarali savol va topshiriqlar tayyorlash.** Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinlik darajasi har xil bo'lgan masala va topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi. Bunda o'qituvchi tomonidan talabaga testga qo'yiladigan talablar, tuzish qonun - qoidalari, qanday maqsad ko'zda tutilayotganligi, muammoli savollar tuzishda mavzuning munozarali momentlarini qanday ajratish lozimligi, topshiriqlarni tuzish usullari bo'yicha yo'l - yo'riq beriladi. Konsul'tasiya paytlarida bajarilgan ishlarning qo'yilgan vazifa va talabalarga javob berish darajasi nazorat qilinadi (qayta ishlab kelish, aniqlashtirish yoki to'ldirish taklif etilishi mumkin). Test, savol va topshiriqlar majmuasi kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

- **Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruzalar tayyorlash.** Talabaga biron bir mavzu bo'yicha (mavzuni talabaning o'zi tanlashi ham mumkin) ilmiy xarakter kasb etgan maqola, tezis yoki ma'ruza tayyorlash topshirilishi mumkin. Bunda talaba o'quv adabiyotlari, ilmiy - tadqiqot ishlari, dissertasiyalar, maqola va monografiyalar hamda boshqa axborot manbalaridan mavzuga tegishli materiallarni to'playdi, taxlil qiladi, zarurlarini ajratib olib, tartibga soladi, shaxsiy tajribasi va bilimi, ilmiy natijalariga asoslangan holda qo'shimchalar, izohlar kiritiladi, o'z nuqtai - nazarini bayon etadi va asoslaydi. Bunda talaba o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi. Tayoyrlangan maqola, tezis yoki ma'ruza kafedrada himoya qilinadi. Talabaga ilmiy xarakterdagi topshiriqlarni berishda uning qiziqishi va qobiliyatiga e'tibor berish, ishni baholayotganda esa uning mazkur fanga daxldor (masalan, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, ijtimoiy hamkorlik, komil inson,

millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik kabi) mavzularda ekanligiga, ilmiyligi va ijodiylikiga e'tibor qaratish lozim. Xullas, bunda talaba ham mustaqil ishni bajaradi va ayni damda o'z o'qituvchisi bilan hamkorlikda ilmiy maqolalar tayyorlab, chop ettiradi. Ijtimoiy fanlar kafedrasida bunday hamkorlik bir necha yillardan buyon yo'lga qo'yilgan bo'lib, ilmiy rahbar va talabaning ilmiy maqolalari hamda tezislari Respublika, viloyat va institut miqyosidagi ilmiy - nazariy konferensiyalar to'plamlari va gazeta - jurnallarda chop etilib kelinmoqda;

- **Amaliy mazmundagi nostandart vazifalarni bajarish va ijodiy ishlash.** Bunda talabaga fanning har bir bo'lim, har bir mavzu bo'yicha nostandart, nazariy ahamiyatga ega bo'lgan amaliy topshiriqlar, ijodiy yondashish talab qilinadigan ilmiy - ijodiy vazifalar topshirilishi mumkin. Bunday amaliy topshiriqlar masalani hal qilishning optimal variantini izlab topishga qaratilgan bo'lishi kerak. Mustaqil ishning bu turida har bir talaba qaysidir kitobdan muayyan mavzuni ko'chirib kelmasdan, o'zi mustaqil ravishda yozma tavsifnoma, axborot yoki insho yozishi (masalan, har bir talaba o'zining mustaqil ijodiy ishida o'zi tug'ilib o'sgan joy, ya'ni Vatani tarixini qisqacha bo'lsa ham arxiv yozishi, u yerdagi tarixiy joylar, masalan, masjid va madrasalar, tarixiy obidalar rasmlarini yoki videokassetasini ilova qilishi) mumkin;

- **Uy vazifalarini bajarish** va boshqalar. Bunda oddiygina, ko'p vaqtni olmaydigan, biroq talabani mushohada qilishga, mustaqil fikrlashga undaydigan, izlanishga majbur qiladigan topshiriqlarni berish mumkin. Masalan, talabaning o'zining ism - sharifining ma'nosi yoki u tug'ilib o'sgan qishloq yoki shaharning nomi nima uchun aynan shunday atalishi kabi qiziqarli savollarga javob topib kelish mana shunday topshiriqlar sirasiga kiradi. Bunday topshiriqlar talabada shaxsiy va milliy g'ururni, tarixiy xotira va milliy iftixor hissini kuchaytiradi. Zero, Birinchi Prezidentimiz *Islom Karimov* ta'kidlaganidek: «Tarixiy xotirasi bor inson - irodali inson. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi. O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi»;

- Mutaxassislik fanlaridan o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, talabalarga mustaqil ish uchun **boshqa shakllardagi vazifalar** ham topshirilishi mumkin. Talabalarga qanday topshiriqlar berish mumkinligi kafedra tomonidan belgilanadi. Ular puxta o'ylangan va ma'lum maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi, talabalarning auditoriyada olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, kengaytirishga, to'ldirishga xizmat qilishi kerak. Xullas, Tarixga oid mutaxassislik

fanlardan mustaqil ishni bajarishda krossvordlar tayyorlash, fandagi asosiy tushunchalarni sxema asosida tasvirlash yoki shu masala yuzasidan internetdagi xabarlarni tahlil etish va tayanch iboralar bilan ishlash, ekskursiya taassurotlari haqida insho (esse) yozish, manbalarni konspektlashtirish, ilmiy maqola tayyorlash kabi shakllar ayniqsa yaxshi natija beradi.

Talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

a) Tizimli yondashish;

b) barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

v) bajarilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish;

g) tashkil etish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirib borish zarur.

Talabalar mustaqil ishlari muvaffaqiyatli yakunlanishi uchun qo'yiladigan talablar:

- **Maqsadning aniqligi** (talabada mavjud bo'lgan, oliygohga kirishdan oldin olgan bilimlarini mustahkamlash, yangi bilimlarni o'zlashtirish, ijodiy faollikni oshirish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish va h.k.)

- **TMI ning aniq asoslanishi**, ya'ni vazifa va topshiriqlarning mavhum tarzda emas, balki aniq - ravshan belgilanishi;

- **maslahat va boshqa yordam turlarining to'g'ri belgilanishi** (yo'llanma va ko'rsatmalar berish, mavzuning mazmuni va mohiyatini tushuntirish, muammoli topshiriqlarni bajarish usullari bo'yicha tushuncha berish, ayrim muammoli vaziyatlarni birgalikda hal qilish va h.k.);

- **hisobot shakli va baholash mezonini aniq belgilash;**

- **nazorat vaqti, shakli va turlarini aniq belgilab olish** (amaliy seminar, laboratoriya mashg'ulotlari, konsul'tasiya uchun yoki nazorat uchun maxsus ajratilgan vaqt; ma'ruza yo referat matni, bajarilgan topshiriqlar daftari, nazorat ishlari, uy vazifasi daftari, kurs ishlari, test, maqola, nostandart topshiriqlar, savollar, maqola, ko'rgazmali jihozlar va ijodiy ishlar; savol - javob, bajarilgan ish mazmuni va mohiyati tushuntirib berish, yozma shaklda bayon qilish va h.k.)

Talabalar mustaqil ishini shartli ravishda ikkiga ajratish mumkin:

a) auditoriya amalga oshiriladigan TMI lari;

b) auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMI lari.

O'tilgan mavzuni qayta ishlash, kengaytirish, mustahkamlashga oid topshiriqlar - **auditoriyada amalga oshiriladigan TMI lari** sirasiga kiradi. Bunday turdagi ishlarda talabalarning nazariy va amaliy bilimlarini o'zlashtirib borish darajasi, amaliy mashg'ulotlarga

tayyorgarlik saviyasi va uy vazifalarning bajarilish sifatini tekshirish maqsadida, odatda, nazorat ishlarini qabul qilish, og‘zaki savol – javob qilish, suhbat o‘tkazish yoki bahs - munozara olib borish, debatlar tashkil qilish, amaliy topshiriqlarni bajartirish va h.k. usullarda asosan amaliyot darslarida (joriy) nazorat qilinadi. Joriy nazoratni qabul qilishda talabning dars paytida o‘tilgan materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi, mashg‘ulotlarga qatnashishda faollik darajasi, uyga berilgan topshiriqlarni bajarishdagi saviyasi e’tiborga olinadi.

O‘quv dasturidagi ayrim mavzularni mustaqil holda o‘zlashtirish, uyga berilgan vazifalarni sifatli bajarish, amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rib kelish, ijodiy va ilmiy - tadqiqot xarakteridagi ishlar - **auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan TMI lar** sirasiga kiradi. Bunday ishlar ma’lumot va axborotlarni mustaqil ravishda izlab topish, tahlil qilish, konspektlashtirish, (referat yozish tarzida rasmiylashtirish) o‘zlashtirish, ijodiy yondashishni talab qiladigan amaliy topshiriqlarni bajarish ko‘rinishida amalga oshiriladi. Bu ishlarni bajarish jarayoni va o‘zlashtirish sifatining nazorati darsdan tashqari paytlarda, maxsus belgilangan konsul’tasiya soatlarda amalga oshiriladi.

TALABALAR MUSTAQIL ISHI BO‘YICHA KONSULTASIYALAR TASHKIL ETISH TARTIBI

- 1.** Mutaxassislik fanlaridan talabalar mustaqil ishi (TMI) bo‘yicha konsultasiya darsi auditoriyadan tashqarida amalga oshirishi mo‘ljallangan mustaqil ishlarni ajarish yuzasidan tegishli yo‘llanmalar berish va uni bajarilishini nazorat qilib borish maqsadida tashkil qilinadi.
- 2.** Mazkur fan bo‘yicha TMI bo‘yicha konsultasiya darsi fanning kalendar - tematik rejasiga muvofiq o‘tkaziladi.
- 3.** Mutaxassislik fanlaridan konsultasiya darsi shu potok yoki guruhga birlashtirilgan fan o‘qituvchisi tomonidan o‘tkaziladi.
- 4.** O‘qituvchi konsultasiya darsida quyidagi ishlarni amalga oshiradi:
 - TMI topshiriqlarni bajarish yuzasidan tegishli yo‘llanma beradi;
 - topshiriqni bajarish rejasini tuzishga yordamlashadi;
 - tegishli adabiyotlar va axborot manbalarini tavsiya qiladi;
 - TMI yuzasidan tayyorlangan ishlanma, hisobot, referat, hisob - kitob va topshiriq natijalarini qabul qiladi hamda baholaydi.
- 5.** TMI bo‘yicha konsultasiyalar o‘quv jarayonining 1 yoki 2 smenada tashkil etilishiga qarab, talabalarning darsdan bo‘sh vaqtlarida dars jadvaliga kiritiladi.

MUSTAQIL ISHNI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

1. Ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtir

2. Berilgan mavzu bo‘yicha referat tayyorlash

3. Seminarlarga tayyorgarlik ko‘rish

4. Tayanch iboralar bilan ishlash

6. Mantiqiy va muammoli masalalarni yechish

7. Nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash

8. Amaliyotda mavjud muammolar yechimlarini topish (keys-stadi)

9. Tarixiy xaritalar chizish.

10. Anjumanlarda ishtirok etish uchun ilmiy maqolalar va tezislar tayyorlash.

11 Kutubxona, muzeylar va arxivlarga ekskursiyalar qilish va taassurotlarni esse tarzida bayon qilish.

12. Internetdan olingan ma‘lumotlarni tahlil etish va qiyoslash.

13. Krossvordlar, testlar, qiziqarli savollar tuzish va boshqa turli muammoli xarakterdagi vazifalarni bajarish.

14. Fan mavzulariga oid bo‘lgan ko‘rgazmali qurollar tayyorlash.

TALABA MUSTAQIL ISHINING VAZIFALARI QUYIDAGILARDAN
IBORAT:

1. Yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2. Kerakli ma'lumotlarni izlab topishningqulay usullari va vositalarini aniqlash.

3. Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish

4. An'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar bilan ishlash.

5. Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash.

6. Internet tarmog'idan rasional yechimlarni belgilash

7. Ma'lumotlar bazasini tahlil etish.

8. Ish natijalari asosida axborotlar tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash.

9. Topshiriqlarni badjarishda tizimli va ijodiy yondashish

10. Ishlab chiqilgan yechim, loyiha yoki g'oyani asoslash, mutaxassislar jamoasida himoya qilish.

11. Tayanch iboralarni Blum taksonomiyasi asosida o'rganishga erishish.

12. Milliy istiqlol g'oyasi asosida vatanparvar shaxsni tarbiyalash, mafkuraviy immunitetni shakllantirish.

MUTAXASSISLIK FANLARI BO'YICHA BAHOLASH MEZONLARI

Mustaqil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablari asosida Respublikamizning oziq - ovqat va engil sanoat sohalarini yetuk mutaxassislar bilan ta'minlash, talabalarning mafkuraviy va siyosiy savodxonligini oshirish, ularni iymon – e'tiqodli, diniy va milliy qadriyatlarga sodiq insonlar qilib tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligining 2009 yil 11 iyun № 204 sonli buyrug'i asosida hamda 2020 yil 23 sentyabrdagi qabul qilingan "Ta'lim to'g'risidagi" 637- sonli O'RQ qonunning 18- moddasiga asosan Buxoro tarixi kafedrasining **5120300 - (60220300) Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) ta'limi yo'nalishi** Mutaxassislik fanlaridan talabalarni reyting tizimi bo'yicha baholash mezonlari ishlab chiqildi. Mazkur Nizomdan ko'zlangan maqsad talabalarda o'tilayotgan fanlarni chuqur egallash, topshiriqlarga ijodiy yondashish, **mustaqil fikrlash**, o'z bilimini muntazam ravishda oshirishga intilish hamda adabiyotlardan keng foydalanish kabi xususiyatlarni rivojlantirishdir. Talabaning fan bo'yicha o'zlashtirishini baholash muntazam ravishda olib borilib, quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

MUTAXASSISLIK FANLARIDAN OB va YAB bo'yicha ballar taqsimoti mezoni

Uniwork tizimida Oraliq nazorat 5 ball shundan 3 balli oraliq va 2 balli mustaqil ish jami: 5 balldan talaba o'tish balli 3 ball olishi kerak

t/r	Reyting nazorati turi	Nazorat topshirish shakli	Nazorat tashkil qilish	Eslatma
1.	ON	Yozma ish	3 ball	Fanning ishchi dasturidagi ma`ruza mashg`ulotlarning 1-15 mavzulari yuzasidan ishlab chiqilgan
2	Jami:	Umumiy 3 ball olgan	talaba	Yakuniyga kiradi 60 foiz balldan yuqorisi

Uniwork tizimida Mustaqil ish baholash mezon -2 ball oraliq nazoratiga singdiriladi

	Ish turi	shakli	Baholashga yondashuv	Eslatma
1.	Mustaqil ish	Referat yoki baner yoki maket yoki buklet yoki krassvord yoki ijodiy ish	1.rasmiylashtirish-1 2.ijodiy yondashish-1 3.internet materiallari- 1 4.xorijiy va yangi adabiyotlardan foydalanish – 1 5. Xulosalash- 1 6.Dizayn uchun- 1 7.maketning, suratdagi asliga mos kelishi-1 8.Krossvord savollarining mantiqan mos kelishi-1 9. Mavzuning dolzarbligi- 1 10.Ishning himoyasi-1	Mustaqil ish mavzulari, shakllari va hajmi fanning ishchi dasturidan kelib chiqqan.. Talaba mavzuni yoki shaklini tanlash huquqiga ega.

Hemis dasturida Yakuniy nazorat baholash mezon –100 baho

t/r	Reyting nazorati turi	Nazorat topshirish shakli	Nazorat tashkil qilish	Eslatma
1.	Yakuniy	Yozma ish	200 ta savol 100 ball	Fanning ishchi dasturidagi barcha ma`ruza va amaliy mashg`ulotlar yuzasidan ishlab chiqilgan savollar asosida olinadi.
Jami:	1 ta	Umumiy yakuniy	100 Ball maksimal	Jami o`tish bali 60 ball

**Jumladan Tarixiy o'lkashunaslik fani misolida :
Mustaqil ish mavzulari:**

1	<i>O'lkamiz tarixini o'rganishda arxeologik yodgorliklarning o'rni.</i>	2
2	<i>Turkistonda dastlabki ilmiy jamiyatlarning tashkil etilishi</i>	2
3	<i>Turkistonda dastlabki ilmiy jamiyatlarning tashkil etilishi</i>	2
4	<i>O'zbekistonning Amir Temur, Temuriylar va Shayboniylar davri memorchiligi.</i>	2
5	<i>O'zbekistonning Amir Temur, Temuriylar va Shayboniylar davri memorchiligi.</i>	2
6	<i>Toshkent vohasining qadimgi aholisi</i>	2
7	<i>Kushon Baqtriya aholisi.</i>	2
8	<i>Kushon Baqtriya aholisi.</i>	2
9	<i>O'rta Osiyoda shaharsozlik madaniyatining paydo bo'lishi.</i>	2
10	<i>O'rta Osiyoda shaharsozlik madaniyatining paydo bo'lishi.</i>	2
11	<i>IX-XVII asrlarda o'lkamiz tarixiy geografiyasi.</i>	2
12	<i>Qadimgi diniy tasavvurlar, urf-odat va irimlar.</i>	2
13	<i>Qadimgi diniy tasavvurlar, urf-odat va irimlar.</i>	2
14	<i>Tarixiy jarayonlarni yoritishda va o'lkashunoslikni o'rganishda arxiv hujjatlarining o'rni.</i>	2
15	<i>Arab tarixchilari nigohida o'lkamiz.</i>	2
16	<i>Arab tarixchilari nigohida o'lkamiz.</i>	2
17	<i>Respublika viloyat joylarining toponimikasi.</i>	2
18	<i>O'lka tarixini o'rganishda muzeylarning o'rni</i>	2
19	<i>O'lka tarixini o'rganishda muzeylarning o'rni</i>	2
20	<i>Mustaqillik yillarda o'lkashunoslik</i>	2
21	<i>Mustaqillik yillarda o'lkashunoslik</i>	2
22	<i>O'lkamizdagi qadimgi va o'rta asrlar shaharlari.</i>	2
23	<i>Janubiy Turkmaniston shaharlari</i>	2
24	<i>Amudaryo va Surxondaryo vohasi shaharlari.</i>	2
25	<i>Qashqadaryo vohasi shaharlari.</i>	2
26	<i>Qashqadaryo daryosining yuqori va o'rta oqimlaridagi o'rta asr shaharlari.</i>	2
27	<i>O'rta asrlar davri shaharlari: Axsikat, Quva (Qubo), O'sh, O'zgan, Xo'jand, Qo'qon.</i>	2
28	<i>O'rta asrlar davri shaharlari: Axsikat, Quva (Qubo), O'sh, O'zgan, Xo'jand, Qo'qon.</i>	2

29	<i>Buxoro vohasi shaharlari.</i>	2
30	<i>Mustaqillik davrida shaharzolik madaniyatini o'rganishda olib borilgan chora-tadbirlar.</i>	2
31	<i>Mustaqillik davrida shaharzolik madaniyatini o'rganishda olib borilgan chora-tadbirlar.</i>	2
32	<i>Amudaryo flotiliyasining ochilishi va uning o'lka iqtisodiga ko'rsatgan ta'siri.</i>	2
33	<i>Xorazmning o'rta asr shaharlari.</i>	2
34	<i>So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlari</i>	2
35	<i>O'rta asrlarda Toshkent</i>	2
36	<i>Rus sayohlarining O'rta osiyo tekislik hududlarini o'rganishda qo'shgan hissasi.</i>	2
37	<i>Rus sayohlarining O'rta osiyo tekislik hududlarini o'rganishda qo'shgan hissasi.</i>	2
38	<i>Toshkent, Jizzax, Samarqand, viloyatlarining arxitektura yodgorliklari, topografiyasi, etnografiyasi haqida ma'lumot yig'ish.</i>	2
39	<i>Toshkent, Jizzax, Samarqand, viloyatlarining arxitektura yodgorliklari, topografiyasi, etnografiyasi haqida ma'lumot yig'ish.</i>	2
40	<i>Farg'ona, Namangan, Andijon, viloyatlarining arxitektura yodgorliklari, topografiyasi, etnografiyasi haqida ma'lumot yig'ish.</i>	2
41	<i>Farg'ona, Namangan, Andijon, viloyatlarining arxitektura yodgorliklari, topografiyasi, etnografiyasi haqida ma'lumot yig'ish.</i>	2
42	<i>Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarining arxitektura yodgorliklari, topografiyasi, etnografiyasi haqida ma'lumot yig'ish.</i>	2
43	<i>Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarining arxitektura yodgorliklari, topografiyasi, etnografiyasi haqida ma'lumot yig'ish.</i>	2
44	<i>Xorazm, Sirdaryo, Surxandaryo, viloyatlarining arxitektura yodgorliklari, topografiyasi, etnografiyasi haqida ma'lumot yig'ish.</i>	2
45	<i>Xorazm, Sirdaryo, Surxandaryo, viloyatlarining arxitektura yodgorliklari, topografiyasi, etnografiyasi haqida ma'lumot yig'ish.</i>	2
	JAMI:	90

Asosiy adabiyotlar

1. History of civilizations of Central Asia. UNESCO publishing. 1996
2. Tiller Kate English Local History: an introduction. London, 2002.
3. Ornament as Art: Avant-Garde Jewelry from the Helen Williams Drutt Collection. Hardcover Bargain Price, 2007
4. Ardi Kia. Central Asian Cultures, Arts, and Architecture London SEE II Lexington Books. 2015
5. Gülru Necipoğlu & Alina Payne. Histories of Ornament: From Global to Local. Hardcover. 2016
6. Очилдиев Ф.Б. Тарихий ўлкашунослик. Ўқув-қўлланма. Т.:
7. “Университет” 2008. pdf.
8. Саидбобоев З.А. Тарихий география. Дарслик. Т., 2010. pdf.
9. Эшов Б.Ж. Ўрта Осиёнинг қадимги шаҳарлари тарихи. Дарслик. Тошкент. 2008. pdf.

Qo'shimcha adabiyotlar

10. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11,
11. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi Toshkent: “O'zbekiston” 2017.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: “O'zbekiston” 2017.
13. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent: “O'zbekiston” 2017.
14. Alimov I, Ergashev F, Bo'tayev A. Arxivshunoslik. -T1997.
15. Anarbayev A.A. Blagoustroystvo srednevekovogo goroda Sredney Azii (V- nach. XIII vv). T.,1981. pdf.
16. Annayev T.J., Shaydullayev Sh.B. Surxondaryo tarixidan lavhalar. Samarqand, 1997.

17. Movlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. T., 2008 y
18. Karamatov H. O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi. 2009 y.
19. Eshov B.J, Odilov A.A. O'zbekiston tarixi. Darslik. I - jild. (Eng qadimgi davrdan XIX asr o'rtalarigacha). T. 2013. pdf.
20. Saidov Sh. J. Markaziy Osiyo xalqlari tarixi (Eng qadimgi davrlardan milodiy VII-VIII asrlargacha). O'quv qo'llanma. T.: ToshDSHI. 2010. pdf.
21. Asanova G., Nabixanov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy jo'g'rofiyasi. — T., 1994.
22. Baypakov K. Srednevekoviy goroda yuga Kazaxstana. Almati, 1980. pdf.
23. Beleniskiy A.M., Bentovich I.B., Bolshakov O.G. Srednevekoviy gorod Sredney Azii. L., 1973. Djvu
24. Buryakov Yu.F. Genezis i etapi razvitiya gorodskoy kulturi Tashkentskogo oazisa. T., 1982. Pdf
25. G'ulomov Ya.G'. Xorazmning sug'orilish tarixi. T. 1959.
26. Drevnyaya i srednevekovaya kultura Surxandari. T. 2001. Pdf
27. Drevnyaya i srednevekovaya kultura Chacha. T. 1979. pdf
28. Z. Choriyev, T. Annayev va boshqalar. Al-Hakim At- Termiziy. 2008 y.
29. Kabirov A., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1990. pdf.
30. Nabiyeu A. Tarixiy o'lkashunoslik. O'quv qo'llanma. T.: Fan, 1996. pdf.
31. Jabborov I. M. O'zbek xalqi etnografiyasi. — T., 1994.
32. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. T., 1988.
33. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda. O'quv qo'llanma. T.: O'qituvchi, 1996. pdf.
34. Sagdullayev A.S. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. O'quv qo'llanma. T., 2004. pdf.
35. Sagdullayev A.S., Aminov B.B., Yakubov B.S. Qashqadaryo tarixidan lavxalar. Qarshi. 1997.
36. Suleymanov R.X. Drevniy Naxshab. T., 2000. Pdf
37. Xujayov T. Xujayova G. O'zbek xalqining antropologiyasi va etnik tarixi. - T., 1995.
39. [Erica Hunt](#). Local History. Segue Foundation. New York.- 1993.
40. Xujayov T. Qadimgi ajdodlarimiz qiyofasi. - T., 1992.

Internet saytlari:

41. www.history.ru
42. www.natura.com
43. www.archaeology.ru
44. www.archaeology.com
45. www.ziyonet.uz
46. www.cambridge.co.uk
47. www.oxford.co.uk
48. <https://lex.uz/docs/-5013007>
49. <https://goaravetisyan.ru/uz/effektivnye-formy-organizacii-samostoyatelnoi-raboty-studentov/>

B.B. Boltayev

***5120300 - (60220300) Tarix (mamlakatlar va
mintaqalar bo'yicha) ta'limi yo'nalishi talabalari
uchun mutaxassislik fanlardan
Mustaqil ishni tashkil qilish bo'yicha
USLUBIY KO'RSATMA***

<i>Muharrir:</i>	<i>A. Qalandarov</i>
<i>Texnik muharrir:</i>	<i>G. Samiyeva</i>
<i>Musahhih:</i>	<i>Sh. Qahhorov</i>
<i>Sahifalovchi:</i>	<i>M. Bafoyeva</i>

Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original-
maketdan bosishga ruxsat etildi: 06.06.2022. Bichimi 60x84. Kegli
16 shponli. «Cambria» garn. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset
bosma qog'oz. Bosma tobog'i 1,5. Adadi 100. Buyurtma №232.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ
“Durdona” nashriyoti: Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadridin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko`chasi, 11-uy. Tel.: 0(365) 221-26-45